



TA'LIM TIZIMINING UZLUKSIZLIGI – SIFATLI TA'LIM KAFOLATI

Turan International University

Gumanitar Fanlar va pedagogika fakulteti

Maktabgacha ta'lim SMT-22-CU guruh 4-kurs talabasi

Imomaliyeva Ulmasoy Mavrutali qizi

Annotatsiya (O'zbekcha)

Ushbu maqola O'zbekiston ta'lim tizimining yagona va uzluksiz xususiyatlarini, uning tarkibiy bo'g'inlarini va davlat ta'lim siyosatidagi o'rni hamda ahamiyatini tahlil qiladi. Maqolada maktabgacha ta'limdan tortib oliy ta'limgacha bo'lgan ta'lim bosqichlari, ta'lim olish shakllari va davlat ta'lim standartlari orqali ta'lim sifatini ta'minlash mexanizmlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ta'lim tizimida uzluksizlik, inklyuzivlik va ta'limga teng huquq prinsiplarining amalga oshirilishi masalalari ham muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, uzluksizlik, davlat ta'lim standartlari, maktabgacha ta'lim, umumta'lim, professional ta'lim, oliy ta'lim, inklyuziv ta'lim

Abstract (Inglizcha)

This article analyzes the unified and continuous nature of the education system in Uzbekistan, its structural components, and the role and significance in the state education policy. The article examines educational stages from preschool to higher education, forms of learning, and mechanisms for ensuring education quality through state education standards. Issues of continuity, inclusivity, and equal access to education within the education system are also discussed.



Keywords: education system, continuity, state education standards, preschool education, general education, vocational education, higher education, inclusive education

Аннотация (Ruscha)

В данной статье анализируется единый и непрерывный характер системы образования в Узбекистане, ее структурные компоненты, а также роль и значение в государственной образовательной политике. Рассматриваются образовательные этапы от дошкольного до высшего образования, формы обучения и механизмы обеспечения качества образования через государственные образовательные стандарты. Обсуждаются вопросы непрерывности, инклюзивности и равного доступа к образованию в системе образования.

Ключевые слова: система образования, непрерывность, государственные образовательные стандарты, дошкольное образование, общее образование, профессиональное образование, высшее образование, инклюзивное образование

Kirish

Bugungi globallashuv va ilm-fan jadal rivojlanayotgan sharoitda ta'lim tizimining samaradorligi har bir davlat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ta'limning yagona va uzluksiz bo'lishi jamiyat ehtiyojlariga mos, raqobatbardosh va malakali kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim tizimidagi uzluksizlik shaxsning bolalik davridan boshlab kasbiy va ijtimoiy jihatdan yetuk bo'lib shakllanishigacha bo'lgan jarayonni qamrab oladi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ta'lim tizimi yagona va uzluksiz ekanligi qat'iy belgilab qo'yilgan bo'lib, unda maktabgacha



ta'limdan boshlab oliy ta'limdan keyingi ta'limgacha bo'lgan barcha bosqichlar o'zaro uzviy bog'langan holda faoliyat yuritishi ko'zda tutilgan. Mazkur maqolada aynan ushbu uzluksizlik tamoyilining nazariy va amaliy jihatlari ilmiy tahlil qilinadi.

“Ta'lim to'g'risida”gi Qonunning mazmuni O'zbekiston Respublikasining Qonuni Ta'lim to'g'risida, qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan, Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma'qullangan. Bu qonun 11 ta bob 75 ta moddadan iborat.

Ta'lim tizimi yagona va uzluksizdir.

Ta'lim turlari quyidagilardan iborat:

- maktabgacha ta'lim va tarbiya;
- umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim;
- professional ta'lim;
- oliy ta'lim;
- oliy ta'limdan keyingi ta'lim;
- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- maktabdan tashqari ta'lim.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir. Maktabgacha ta'lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi. Maktabgacha ta'lim va tarbiyani tashkil etish tartibi ushbu Qonun, shuningdek “Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan belgilanadi.



Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim.

Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim umumta'lim o'quv dasturlarini, zarur bilim, malaka hamda ko'nikmalarni o'zlashtirishga qaratilgan.

Umumiy o'rta ta'lim (I — XI sinflar) bosqichlari quyidagilardan iborat:

- boshlang'ich ta'lim (I — IV sinflar);
- tayanch o'rta ta'lim (V — IX sinflar);
- o'rta ta'lim (X — XI sinflar).

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotining birinchi sinfiga bolalar ular yetti yoshga to'ladigan yilda qabul qilinadi.

Boshlang'ich ta'lim ta'lim oluvchilarda umumiy o'rta ta'limni davom ettirish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko'nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan.

Tayanch o'rta ta'lim o'quv dasturiga muvofiq ta'lim oluvchilarga bilim, malaka va ko'nikmalarining zaruriy hajmini beradi, ularda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Tayanch o'rta ta'lim doirasida (VII sinfdan so'ng) ta'lim oluvchilarda kasblar bo'yicha birlamchi bilim va ko'nikmalarni shakllantirish uchun ularni professional tashxislash va kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha choralar amalga oshiriladi.

O'rta ta'lim o'quv dasturiga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalar o'zlashtirilishini, shuningdek ta'limning keyingi turi tanlanishini hamda yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblar egallanishini ta'minlaydi.

Professional tashxislash va kasb-hunarga yo'naltirish, shuningdek ta'lim oluvchilarni yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblarga tayyorlash tartibi qonun



hujjatlarida belgilanadi. Umumiy o'rta ta'lim umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida uzluksiz tarzda, majburiy bo'lgan o'n bir yil davomida amalga oshiriladi.

O'rta maxsus ta'lim akademik litseylarda to'qqiz yillik tayanch o'rta ta'lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarining jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasbhunarga va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.

Nodavlat ta'lim tashkilotlarida umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim to'lovshartnoma asosida amalga oshirilishi mumkin. Iqtidorli va iste'dodli bolalarning qobiliyatini rivojlantirish uchun Prezident, ijod va boshqa ixtisoslashtirilgan maktablar, shuningdek maktab-internatlar tashkil etilishi mumkin.

Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalar davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarida inklyuziv shaklda yoki uy sharoitlarida yakka tartibda ta'lim oladi.

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining sinflarida (guruhlarida) ta'lim oluvchilar soni o'ttiz besh nafardan oshmasligi kerak.

Professional ta'lim

Professional ta'lim egallanadigan kasb va mutaxassislik bo'yicha quyidagi darajalarni o'z ichiga oladi:

boshlang'ich professional ta'lim;

o'rta professional ta'lim;

o'rta maxsus professional ta'lim.



Boshlang'ich professional ta'lim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha umumta'lim fanlarining va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi.

O'rta professional ta'lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi ikki yilgacha bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim hamda boshlang'ich professional ta'lim negizida amalga oshiriladi.

O'rta maxsus professional ta'lim texnikumlarda umumiy o'rta, o'rta maxsus, boshlang'ich professional va o'rta professional ta'lim negizida davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi. Ushbu Qonun kuchga kirguniga qadar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi (to'qqiz yillik umumiy o'rta va uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi) olgan fuqarolar ham o'rta professional va o'rta maxsus professional ta'lim olish huquqiga ega.

Kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlar ta'lim oluvchilarning o'zi tanlagan kasbga va mutaxassislikka ega bo'lishini ta'minlaydi. Fuqarolar shartnoma asosida ikkinchi va undan keyingi professional ta'limni olish huquqiga ega.

Oliy ta'lim

Oliy ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta'minlaydi. Oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlash oliy ta'lim tashkilotlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar, oliy maktablar) amalga oshiriladi.



Umumiy oʻrta (oʻn bir yillik taʼlim), oʻrta maxsus (toʻqqiz yillik tayanch oʻrta va ikki yillik oʻrta maxsus taʼlim), boshlangʻich professional taʼlim (toʻqqiz yillik tayanch oʻrta va ikki yillik boshlangʻich professional taʼlim) olgan shaxslar, shuningdek ushbu Qonun kuchga kirguniga qadar oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi (toʻqqiz yillik umumiy oʻrta va uch yillik oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi) olgan shaxslar oliy maʼlumot olish huquqiga ega.

Oliy taʼlim ikki bosqichga-bakalavriat va magistratura bosqichiga ega. Bakalavriat oliy taʼlim yoʻnalishlaridan biri boʻyicha chuqurlashtirilgan bilim, malaka va koʻnikmalar beradigan, oʻqish davomiyligi kamida uch yil boʻlgan tayanch oliy taʼlimdir.

Magistratura tegishli bakalavriat negizidagi aniq mutaxassislik boʻyicha oʻqish davomiyligi kamida bir yil boʻlgan oliy taʼlimdir. Magistratura mutaxassisliklarining va ularga muvofiq boʻlgan bakalavriat taʼlim yoʻnalishlarining roʻyxati taʼlim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organi tomonidan belgilanadi. Fuqarolar shartnoma asosida ikkinchi va undan keyingi oliy maʼlumotni olish huquqiga ega.

Oliy taʼlimdan keyingi taʼlim

Oliy taʼlimdan keyingi taʼlimni oliy taʼlim va ilmiy tashkilotlarda olish mumkin. Oliy taʼlimdan keyingi taʼlim doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur oʻrganishni va ilmiy izlanishlar olib borishni nazarda tutadigan tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchanlik asosida ilmiy darajaga ega ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni taʼminlaydi.

Tayanch doktorantura falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD) ilmiy darajasiga daʼvogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil



etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli hisoblanadi.

Doktorantura fan doktori (Doctor of Science (DSc) ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli hisoblanadi.

Mustaqil izlanuvchilik falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD) yoki fan doktori (Doctor of Science (DSc) ilmiy darajalariga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralmagan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli hisoblanadi.

Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash, ilmiy darajalar va ilmiy unvonlar berish tartibi, shuningdek harbiy, tibbiyot va boshqa ta'lim tashkilotlarida oliy ta'limdan keyingi ta'lim olish xususiyatlari qonun hujjatlarida belgilanadi. Oliy ta'limdan keyingi ta'limning davom etish muddati qonun hujjatlarida belgilanadi.

Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish

Kadrlarni qayta tayyorlash tayanch mutaxassisliklar va kasblarga muvofiq bo'lgan yo'nalishlar bo'yicha faoliyatni amalga oshirish uchun qo'shimcha kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning zarur hajmi egallanishini ta'minlaydi.

Kadrlar malakasini oshirish kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning chuqurlashtirilishi hamda yangilab borilishini ta'minlaydi, kadrlarning toifasi, darajasi, razryadi va lavozimi oshishiga xizmat qiladi. Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish shakllari va muddatlari tegishli davlat ta'lim talablari bilan belgilanadi.

Maktabdan tashqari ta'lim



Bolalarning ehtiyojlarini qanoatlantirish, bo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek tijorat tashkilotlari madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport yo'nalishidagi maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlarini tashkil etishi mumkin.

Maktabdan tashqari ta'lim bolalarga uzluksiz ta'lim berishning tarkibiy qismi sifatida ularning iste'dodi va qobiliyatini rivojlantirishga, ma'naviy ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan.

Maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari jumlasiga bolalar, o'smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari, "Barkamol avlod" bolalar maktablari, bolalar o'smirlar sport maktablari, bolalar musiqa va san'at maktablari, studiyalar, axborotkutubxona hamda sog'lomlashtirish muassasalari kiradi. Maktabdan tashqari ta'lim berish tartibi ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organi tomonidan belgilanadi.

Ta'lim olish shakllari

Ta'lim olish shakllari quyidagilardan iborat: ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olish (kunduzgi);

ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olish (sirtqi, kechki, masofaviy); dual ta'lim;

oilada ta'lim olish va mustaqil ta'lim olish;

katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish;

inklyuziv ta'lim;

eksternat tartibidagi ta'lim;

mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlar tayyorlash.



Masofaviy ta'lim olish shakllari

Masofaviy ta'lim o'quv rejalari va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan. Masofaviy ta'limni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Dual ta'lim

Dual ta'lim ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni olishga qaratilgan bo'lib, ularning nazariy qismi ta'lim tashkiloti negizida, amaliy qismi esa ta'lim oluvchining ish joyida amalga oshiriladi.

Dual ta'limni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Oilada ta'lim olish va mustaqil ta'lim olish

Davlat oilada ta'lim olishga va mustaqil ta'lim olishga ko'maklashadi. Bolalarning oilada ta'lim olishi va mustaqil ta'lim olish uslubiy va maslahat yordami ko'rsatilgan holda tegishli o'quv dasturlari bo'yicha amalga oshiriladi.

Oilada ta'lim olish va mustaqil ta'lim olish tartibi, shuningdek ta'lim oluvchilarning toifalari ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari tomonidan belgilanadi. Oilada ta'lim olish bolalar, oila, davlat va jamiyat manfaatlarini hisobga olgan holda davlat ta'lim muassasasi hamda ta'lim oluvchilarning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillari o'rtasidagi shartnoma asosida amalga oshiriladi. Mustaqil ta'lim olish yakka tartibda amalga oshiriladi hamda ta'lim oluvchilarni kasbiy, intellektual, ma'naviy va madaniy rivojlantirishga xizmat qiladi.



Oilada ta'lim olgan va mustaqil ta'lim olgan shaxslarga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ta'lim to'g'risidagi hujjatni berish davlat ta'lim muassasalarining tasdiqlangan o'quv dasturiga muvofiq eksternat tartibida amalga oshiriladi.

Katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish

Katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish butun umr davomida o'qitishning markaziy tarkibiy qismi bo'lib, ta'lim berish hamda o'qitishning jamiyat hayotida va mehnat faoliyatida katta yoshdagilarning ishtirok etishini ta'minlashga qaratilgan barcha shakllarini o'z ichiga oladi, shuningdek rasmiy, norasmiy va informal o'qitish jarayonlarining butun majmuini qamrab oladi.

Rasmiy ta'lim davlat ta'lim muassasalari hamda davlat tomonidan tan olingan akkreditatsiyadan o'tgan nodavlat ta'lim tashkilotlari ishtirokidagi institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan ta'limdir.

Norasmiy ta'lim ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan bo'lib, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobilidir.

Inklyuziv ta'lim

Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilmaxilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etiladi. Inklyuziv ta'limni



tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Eksternat tartibidagi ta'lim

Eksternat tartibidagi ta'lim olish o'quv dasturlarini mustaqil ravishda o'zlashtirishni o'z ichiga olib, uning yakunlari bo'yicha ta'lim oluvchilardan davlat ta'lim muassasalarida yakuniy va davlat attestatsiyalaridan o'tishni talab etadi. Eksternat tartibidagi ta'lim olishni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Mudofaa

Mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlarni tayyorlash Mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlarni tayyorlash ularning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim tizimining boshlang'ich bo'g'ini.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ta'lim tizimining yagona va uzluksizligi jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim pedagogik va ijtimoiy omil hisoblanadi. Ta'lim bosqichlari o'rtasidagi izchillik va uzviylik shaxsning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, maktabgacha ta'limdan boshlab umumiy o'rta, professional, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimlarining bir-biri bilan uzviy bog'liq holda tashkil etilishi ta'lim sifati va samaradorligini oshiradi.

Shuningdek, uzluksiz ta'lim tizimi insonning butun hayoti davomida bilim olishga bo'lgan ehtiyojini qondirish, kasbiy malakasini doimiy ravishda oshirib borish imkonini yaratadi. Bu esa zamonaviy mehnat bozori talablariga mos, mustaqil



fikrlaydigan va ijtimoiy faol shaxslarni shakllantirishga zamin yaratadi. Demak, ta'lim tizimining yagona va uzluksizligini ta'minlash davlat ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, u jamiyat taraqqiyoti va inson kapitalini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining **“Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni**. — T.: 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim sohasiga oid qaror va farmonlari to'plami. — T.: Yangi O'zbekiston, 2021.
3. Abdullaeva S. **Pedagogika nazariyasi va amaliyoti**. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
4. Xodjayev B.X. **Ta'lim sifatini boshqarish asoslari**. — Toshkent: Fan, 2018.
5. Maktabgacha pedagogika oquv qo'llanma. Mirzayeva Dilfuza Shavkatovna. Toshkent 2022.
6. <https://www.google.com>